

TURKIY XALQ EPOSLARINI QIYOSIY-TIPOLOGIK ASOSDA O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI VA METODOLOGIK ASOSLARI

To'ymurodova Umida Dilmurod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar qahramonlik eposlarini oliy ta'lim tizimida o'qitishning innovatsion metodikasi va qiyosiy-tipologik tahlil tamoyillari tadqiq etilgan bo'lib, unda "Alpomish", "Manas", "Bamsi Bayrak" kabi yirik epik yodgorliklarning genetik ildizlari va badiiy transformatsiyasi ilmiy tahlil qilingan. Maqolaning metodik yangiligi sifatida eposlarni o'qitishda raqamli xaritalar, sinxron tahlil modullari va texnologiyalarni qo'llash samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiy epos, qiyosiy-tipologiya, "Alpomish", "Manas", epik motiv, raqamli metodika, sinxron tahlil, genetik mushtaraklik.

Аннотация. В данной статье исследуются инновационные методики преподавания героических эпосов тюркских народов в системе высшего образования на основе сравнительно-типологических принципов. В работе проведен научный анализ генетических корней и художественной трансформации таких крупных эпических памятников, как «Алпамыш», «Манас», «Бамси Байрак». В качестве методической новизны обоснована эффективность использования цифровых карт, модулей синхронного анализа и технологий в процессе изучения эпоса.

Ключевые слова: тюркский эпос, сравнительная типология, «Алпамыш», «Манас», эпический мотив, цифровая методика, синхронный анализ, генетическая общность.

Abstract. This article investigates innovative methodologies for teaching the heroic epics of Turkic peoples in the higher education system based on comparative-typological principles. The research provides a scientific analysis of the genetic roots and artistic transformation of major epic monuments such as "Alpamysh", "Manas", "Bamsi Bayrak". As a methodological innovation, the effectiveness of using digital maps, synchronous analysis modules, and technologies in the process of studying the epic is scientifically substantiated.

Keywords: Turkic epic, comparative typology, "Alpamysh", "Manas", epic motif, digital methodology, synchronous analysis, genetic commonality.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposlari, milliy tafakkur, tarixiy xotira va umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan manbalardir. Hozirgi davrda turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi madaniy va ma‘rifiy integratsiya jarayonlarining kuchayishi ta‘lim tizimida ushbu merosni o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. An‘anaviy dars berish usullari ko‘p hollarda asarning badiiy-estetik jozibasini va uning boshqa qardosh eposlar bilan genetik mushtarakligini to‘la ochib bera olmaydi. Shu sababli, dars jarayonida qiyosiy-tipologik tahlilni tizimli yo‘lga qo‘shish talabalarda nafaqat adabiy bilimni, balki filologik ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning nazariy-metodologik asosini V.M.Jirmunskiyning qiyosiy folklorshunoslik nazariyalari, Y.Meletinskiyning mifologik tahlillari hamda T.Mirzayevning dostonshunoslikka oid fundamental qarashlari tashkil etadi. Amaliy qismda pedagogik modellashtirish, qiyosiy-tarixiy tasniflash va tajriba-sinov (eksperimental) metodlaridan kompleks foydalanildi.

Turkiy eposlarda qahramon obrazining shakllanishi yagona epik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Masalan, “Alpomish” (o‘zbek), “Alpamis batir” (qozoq) va “Bamsi Bayrak” (o‘g‘uz) dostonlarida qahramonning mo‘jizaviy tug‘ilishi, g‘ayritabiiy kuch-qudratga ega bo‘lishi va alp qizi bilan bog‘liq nikoh shartlari (kamondan otish, poyga, kurash) deyarli bir xil syujet chizig‘ini hosil qiladi. O‘quv jarayonida “Qahramon yo‘li” modeli asosida tahlil qilish talabalarga epik matnning mantiqiy qurilmasini tushunish imkonini beradi. Bu metod orqali dostonlardagi mifologik va ijtimoiy voqelikning o‘zaro nisbati oydinlashadi. Maqolamizda dars jarayoniga “Qahramon yo‘li” modelini tatbiq etish taklif qilinadi. Ushbu model uch bosqichni qamrab oladi:

Separatsiya: Qahramonning mo‘jizaviy tug‘ilishi va ijtimoiy muhitdan ajralib, sinovlarga otlanishi.

Initiatsiya: Zindon motivi yoki dushman qarorgohidagi sarguzashtlar orqali qahramonning ramziy “qayta tug‘ilishi”.

Qaytish: Tanib bo‘lmas qiyofada (baxshi / darvesh) o‘z yurtiga qaytib, adolatni tiklashi.

Filologik ta‘limda eng samarali natija beradigan usullardan yana biri sinxron tahlil jadvalidir. “Alpomish” va o‘g‘uzlarning “Bamsi Bayrak” dostonlari misolida qahramonning o‘z to‘yiga qaytishi motivining tahlili turkiy epik dunyoqarashning yaxlitligini isbotlaydi.

№	Tahlil mezonlari	“Alpomish” (o‘zbek versiyasi)	“Bamsi Bayrak” (o‘g‘uz versiyasi)
1	Qahramonning tug‘ilishi	Farzandsiz ota-onaning (Boybo‘ri) avliyolar duosi bilan farzand ko‘rishi	Bay Bo‘ra bekning o‘g‘uz beklarining duosi bilan farzand ko‘rishi
2	Shartlar	Barchinoyning 4 sharti	Banu Chechakning

		(poyga, kamon otish, kurash, nishonga urish)	qahramon bilan poyga, kamon otish va kurashda musobaqalashishi
3	Tutqunlik motivi	Qalmoqlar yurtida (yetti yil) zindonda qolishi	Kofirlar qal’asida (o’n olti yil) asirlikda qolishi
4	Zindondan qutilish	Cho’pon yoki asir qizning ko’magi (shayxlar himoyasi)	Qal’a begi qizining yordami (qahramonning sevgisi evaziga qutqaradi)
5	Tanib bo’lmaslik	Qahramonning yurtiga qaytib, Qultoy baxshi qiyofasiga kirishi	Qahramonning yurtiga qaytib, dushmanga qarshi “shoir” (baxshi) qiyofasida kirishi
6	To’y ustiga kelish	Barchinoyning Ultontozga uzatilayotganida, to’yi ustiga kelishi	Banu Chechakning Yalanji o’g’liga uzatilayotganida, to’yi ustiga kelishi
7	Tanib olish	Alpomishning yoyni egishi va Barchinoyning uzugi orqali tanilishi	Bamsi Bayrakning o’z uzugi va barmoq qoni orqali tanilishi
8	G’animning jazosi	Ultontozning o’ldirilishi va elning birlashishi	Yalanji o’g’lining sharmanda qilinishi va adolatning tiklanishi

Ushbu jadvalning metodik ahamiyati shundan iboratki, dars jarayonida qo’llash, talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Analitik fikrlash: Har bir motivni alohida-alohida solishtirib, turkiy xalqlarning etnik birligi haqida xulosa chiqaradi.

Matn bilan ishlash: Talabalar jadvaldagi har bir bandga doston matnidan parcha (dalil) topish orqali qiyosiy ko’nikmalarini oshiradilar.

Vizuallashtirish: Murakkab syujet chizig’ini lo’nda va tushunarli holda xotirada saqlab qoladilar.

Shuningdek, o’quv jarayonida “Venn diagrammasi” yordamida “Alpomish” va “Manas” o’rtasidagi tipologik farqlarni aniqlash, raqamli xaritalar orqali talabalarning tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Bu ikki doston turkiy epik tafakkurning ikki xil taraqqiyot bosqichini aks ettiradi. Ularning o’zaro o’xshash va farqli jihatlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

№	Tahlil yo‘nalishi	“Alpomish”	“Manas”
1	G‘oyaviy yo‘nalish	Urug‘ birligi, oilaviy sadoqat va adolat	Milliy birlik, xalqni birlashtirish va mustaqil davlat qurish
2	Ziddiyatlar	Ko‘proq ichki g‘nimlar (Ultontoz) va dushmanlar bilan kurash	Tashqi dushmanlar (Xitoy-qalmoq qo‘shini) bilan bo‘lgan ulkan janglar
3	Badiiy syujet	Syujet qahramonning shaxsiy hayoti (taqdiri) va oilasi atrofiga jamlangan	Butun turkiy qabilalar taqdiri, ulkan harbiy yurishlar
4	Obrazlar tizimi	Alpomish, oilasi, do‘stlari va yordamchi personajlar	Manas va uning “Qirq chiltoni”

Talabalar ushbu diagrammani chizishganida, diagrammaning har bir bandiga doston matnidan bir satr (misra) misol keltirishi shart. Masalan, “Alp obrazi” bandi uchun Alpomishning yoyni egishi yoki Manasning sarsanchari haqidagi satrlarni yozadi. Bu bilan talabalarning qiyosiy tahlil qilish va ma’lumotlarni tizimlashtirish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

Adabiy ta’limda eposlarni o‘qitishning eng murakkab jihatlaridan biri bu asarda tasvirlangan ulkan epik makonni talabalar tasavvurida jonlantirishdir. “Raqamli xarita moduli” dostonlardagi geografik obyektlarni (toponimlarni) shunchaki nom sifatida emas, balki real makon birligi sifatida o‘rganishni ko‘zda tutadi. Ushbu modulda Google Earth Pro, ArcGIS Online yoki interfaol StoryMaps platformalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Talabalar doston matni asosida qahramonning harakatlanish marshrutini (epik asardagi yo‘lini) raqamli xaritaga tushiradilar.

“Alpomish” marshruti: Boysun – Surxondaryo – Amudaryo kechuvi –Qalmoqlar yurti (Janubiy Oltoy).

“Manas” marshruti: Oltoy tog‘lari – Talas vodiysi (Qirg‘iziston) – Ala-Too – Bejin (Xitoy).

Dars jarayonida raqamli xarita bilan ishlash quyidagilar asosida amalga oshiriladi: Talabalar doston matnidan barcha geografik nomlarni (tog‘, daryo, shahar, vodiya) ajratib oladilar. Toponimlarning zamonaviy xaritada o‘rni aniqlanadi. Masalan, “Alpomish”dagi

tog' yoki boshqa nomlar real koordinatalar bilan bog'lanadi. Har bir lokatsiyaga doston matnidani parchalar, o'sha hududning hozirgi ko'rinishi (foto / video) va asar qahramonining o'sha nuqtadagi holati haqidagi ma'lumotlar interfaol "nuqta" sifatida kiritiladi.

Ushbu modulning afzalliklari va pedagogik samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: talabalar asar voqealarini aniq xarita ustida ko'radi. Bu dostonning tarixiy-geografik asoslarini anglashga xizmat qiladi. Doston syujetidagi masofalar va vaqt nisbatini real geografiya bilan solishtirib, badiiy mubolag'a va haqiqat o'rtasidagi farqni tahlil qiladi.

Turkiy qahramonlik eposlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri qahramonning nasl-nasabi (shajarasi)ga bo'lgan yuksak e'tibordir. "Interfaol genealogik daraxt" metodi doston qahramonlarining kelib chiqishi, oilaviy rishtalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Turkiy epik tafakkurda shajara nafaqat oilaviy tarix, balki qahramonning ijtimoiy maqomi va uning "alp"ligini belgilovchi omildir. Masalan, "Alpomish" dostonida Boybo'ri va Boysari munosabatlari, "Manas"da esa "Uch avlod" (Manas, Semetey, Seytek) orqali ta'minlanadi. "Interfaol genealogik daraxt" ushbu murakkab rishtalarni talabalar idrokiga mos ravishda soddalashtiradi.

Talabalar ushbu metodni darsda qo'llashda, shajarani tuzishda, quyidagi elementlarga e'tibor qaratadilar: Otadan o'g'ilga o'tuvchi alplik maqomi (Boybo'ri / Alpomish). Qabilalararo qudachilik va ittifoqchilik (Qo'ng'iroq va boshqa turkiy urug'lar). Shajarada qahramonning mo'jizaviy tug'ilishiga sababchi bo'lgan "homiy obrazlar" (Qultoy, shayxlar) ham alohida o'rin egallaydi.

Darsda talabalar shajarani quyidagi bosqichlarda tahlil qiladilar:

Genezis tahlili: Qahramonning ajdodlari haqidagi ma'lumotlarni matndan izlab topish.

Munosabatlar xaritasini chizish: Asosiy qahramon atrofida do'st (sherik) va dushman personajlarni joylashtirish.

Tipologik solishtirish: Masalan, "Alpomish'dagi Boybo'ri va Boysari munosabati bilan "Dada Qo'rqut"dagi shajara tizimini qiyoslash.

Tanqidiy tahlil: Qon-qarindoshlik rishtalari dostonidagi ziddiyatlarni (masalan, aka-ukalar o'rtasidagi nizolar) keltirib chiqarishdagi rolini tushunib yetadilar.

Talabalar dostonni shunchaki voqealar ketma-ketligi emas, balki yaxlit shajara va ijtimoiy tizim sifatida ko'radilar. Ko'plab personajlar ishtirok etadigan dostonlarda (masalan, "Manas") personajlarni chalkashtirib yubormaslikka yordam beradi.

Shuningdek, bitta dars davomida ikki yirik eposni tahlil qilish uchun 80 daqiqalik dars ishlanmasini taklif etishimiz mumkin:

№	Vaqt	Bosqich	Metod
1	0–15 daqiqa	Motivatsiya	“Blits savol-javob” Ikki eposdagi umumiy tushunchalar (alp, yorlig‘, o‘tov)
2	15–40 daqiqa	Ma’lumot berish	“Venn Diagrammasi”: “Alpomish” va “Bamsi Bayrak” syujet o‘xshashligi tahlili
3	40–65 daqiqa	Amaliy tahlil	“Intertekstual laboratoriya”: Matnlardan parchalar qiyosi
4	65–80 daqiqa	Baholash	“INSERT” va “Sinkveyn” metodlari orqali xulosa chiqarish.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatadiki, turkiy xalq eposlarini qiyosiy-tipologik asosda o‘rgatish talabalarning milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy madaniyatni tushunish darajasini oshiradi. Qiyosiy-tipologik yondashuv qo‘llanilgan guruhlarda talabalar nafaqat doston syujetini, balki undagi badiiy obrazlar evolyutsiyasi va motivlar transformatsiyasini mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, turkiy xalq eposlarini qiyosiy-tipologik asosda o‘rgatish, filologik ta’limning zamonaviy talablariga to‘la mos keladigan yo‘nalishdir. Taklif etilgan innovatsion metodika usullari, filologik ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga, o‘quv dasturlariga tatbiq etishda metodik samaradorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi madaniy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Алпомиш. Ўзбек халқ дostonлари. (Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи М.Зарифов). – Т.: Ўзбекистон, 1993.
2. Манас. Қирғиз халқ эпоси. 1-китоб. Миртемир таржимаси. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1964.
3. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974.
4. Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса. – М., 1963.
5. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: Фан, 1968.